

## BOBURNING PANIPAT VA SIKRI JANGLARI HAQIDA XORIJ TARIXCHILARINING AYRIM MULOHAZALARI VA G'ALABA OMILLARI OCHIB BERILISHI

Nurov Arslon

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8403771>

**Annotatsiya.** Maqolada buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy jang san'ati, ayniqsa uning Hindistonni egallashdagi eng muhim janglari bo'lgan Panipat va Sikri jangi, ulardagi g'alaba omillari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada ushbu janglar haqida ayrim hind va Yevropa tarixchilarining fikr va mulohazalari ham keltirilgan, manbalar o'zaro qiyoslangan.

**Kalit so'zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, Panipat jangi, Sikri jangi, Rano Sango, Boburnoma, Ibrohim Lodi, Marva qirolligi, Dehli sultonligi.

**Аннотация.** В статье раскрывается военное искусство великого царя и поэта Захируддина Мухаммада Бабур, особенно факторы его победы в битвах при Панипате и Сикри, явившихся важнейшими сражениями в завоевании Индии. В статье также представлены мнения и комментарии некоторых индийских и европейских историков об этих сражениях, сопоставлены источники.

**Ключевые слова:** Захируддин Мухаммад Бабур, битва при Панипате, битва при Сикри, Рано Санго, Бабурнама, Ибрагим Лоди, королевство Марва, Делийский султанат.

1526-yilning 21-aprelida bo'lib o'tgan jangda Ibrohim Lodiyning qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Uning janda yengilishining bir qancha sabablari bor edi. Masalan, u hali juda yosh va tajribasiz edi. Bundan tashqari, uning yonidagi amirlari unga xiyonat qila boshladilar va zimdan Boburga yordam beradilar.

Ushbu g'alabdan keyin Boburning ittifoqchisi bo'lgan rajputlar shahzodasi Ra'no Sangamning Bobur Kobulga qaytadi, degan o'y-hayollari puchga chiqdi. Bobur Dehli sultonini mag'lub etgach, bu yerda mustahkam o'ranishib, yangi davlat barpo etishni maqsad qilgan edi.

Barcha tayyorgarliklar ko'rilgach, 1526-yilning 12-aprelida Bobur Mirzoning qo'shini Panipat qishlog'i yoniga kelib, uning o'ng qanotiga joylashadi va jang maydonida o'zi uchun qulay sharoit yaratishga harakat qiladi. Shuni eslatib o'tishimiz lozimki, Panipat jangining tashkil etilishi, jangovar harakatlar va jang natijasi o'laroq olingan jarayonni hech kim diqqat bilan o'rganib chiqqan emas. Ko'plab tarixchilar Bobur Mirzoning jangda qo'llagan bu taktikasi mohiyatini qay tarzda ijobiy natijaga olib kelganligini tasavvur ham qila olmaydilar. Tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, Ibrohim Lodi qo'shinida yuz mingga yaqin jangchilar va olti mingga yaqin jangovar fillar bo'lgan. Bobur qo'shini esa 10-12-ming askardan iborat edi, xolos.

Ikkinchidan, Boburning o'zbek xonlariga qarshi kurashi va Hindistonga uyushtirilgan bir nechta hujumlari uning askarlariga bebaho tajriba berdi. Shuningdek, Bobur armiyasi kuchli o'tochar qurollarga ega edi. Dehli armiyasi esa faqat qilich va kamon bilan qurollangan edi.

1525-yilda Sangram Singx Ibrohim Lodiya qarshi Bobur bilan ittifoq tuzadi va shu orqali Dehli sultonligini yo'q qilishga umid qiladi. Biroq, 1526-yili Panipat jangida Lodi mag'lubiyatga uchrach, Rajput shahzodasi o'z xatosini tushunib, Bobur qo'shinlariga qarshilik ko'rsatadi. Avval Qandar shahrini, keyin Bayanani egallaydi. Hal qiluvchi Xanva jangi 1527-yil 16-martda (Fotihpur Sikri yaqinida) bo'lib o'tadi.

Bu jang Bobur va Rano Sanga o'rtasida Shimoliy Hindistonda hukmronlik qilish maqsadida olib borildi. Jang o'rta asrlar Hindiston tarixida katta burilish nuqtasi bo'ldi. Garchi, Bobur Panipatda g'alaba qozongan bo'lsa-da, bu g'alaba tanazzulga uchragan va parchalana boshlagan davlat ustidan qozonilgan g'alaba edi. Rano Sanga qo'l ostidagi Mevar qirolligi Shimoliy Hindistondagi eng kuchli

davlatlardan biri edi. Shuning uchun ham bu jangdagi g'alaba Bobur uchun Shimoliy Hindistonda to'la humronligini ta'minlagan jang bo'ldi [2, B. 6; 3, B. 419; 4, B. 161; 5, B. 4; 6, B. 34].

Bu Shimoliy Hindistondagi eng qadimgi janglardan biri bo'lib, unda porox ko'p ishlatilgan. Jang temuriylar va rajputlar uchun katta talofatlarga olib keldi. Biroq jangning hal qiluvchi pallasida Rana Sangaga o'q tegib, hushidan ketib yiqildi va amberlik Prithviraj Kachvaxa tomonidan hushsiz holatda jang maydonidan olib chiqib ketiladi.

Panipat jangida Rano Sango Boburga yordam taklif qilgan bo'lsa-da, ammo amalda hech qanday harakat qilmaydi. "Boburnoma"da Bobur Rano Sangoni kelishuvni buzganlikda ayblaydi. Biroq, rajput manbalari buning aksini ta'kidlaydi. "Boburnoma"da Rano Sango yordam taklif qilgani aytilsa, Rajput manbalarida esa Bobur Rano Sangoga Dehli sultonligiga qarshi ittifoq tuzishni taklif qilgani aytiladi [6, B. 453].

Tarixchi Satish Chandraning ma'lumotlariga ko'ra, Bobur Lodi ustidan g'alaba qozongandan keyin, u egallangan shaharlar xazinasiga egalik qiladi va Temur kabi Dehli va Agradan chiqib ketadi, deb o'ylagan. Ammo u Boburning Hindistonga qolish niyati borligini bilishi bilanoq, unga qarshi katta kaolitsiya tuzishga kirishadi. Bu kaolitsiyaning maqsadi Boburni Hindistondan quvib chiqarish edi. 1527-yil boshida Bobur Ra'no Sanganing Agra tomon yurishi haqida xabarlar ola boshlaydi [7, B. 203].

Biroq Mevar hukmdorlari va Boburiylar imperiyasi haqidagi ilmiy asarlari bilan mashhur bo'lgan hindshunos Gopinat Sharma Ra'no Sanga o'z elchisini Boburga yuborgani haqidagi nazariyani mahorat bilan rad etib, buning turli faktik zamonaviy dalillarini keltirishga harakat qilgan. Sharmaning qo'shimcha qilishicha: "Sanga o'sha paytda Shimoliy Hindistonning eng qudratli hindu qiroli sifatida allaqachon o'zini namoyon qilgan, Bobur esa Hindistonda hali o'zini ko'rsatmagan. Bunday sharoitda Hindiston shimolidagi, ehtimol, eng katta va eng qudratli dushmani bilan ittifoq izlash Bobur uchun manfaatli edi. Shuningdek, Bobur o'zining Sanga bilan ittifoqi haqida ma'lumot bermagan bo'lsa, boshqa o'rinlarda u Daulatxon va A'lamxon Lodi bilan kelishuvi haqida batafsil ma'lumot bergan. "Boburnoma"ning o'zi ishonchli kitob emas edi, chunki u g'alabasini haddan tashqari madh etish maqsadida Panipatning birinchi jangidagi qo'shinlar soni to'g'risidagi ko'plab ma'lumotlarni bo'rttirib ko'rsatgan, zamonaviy ilm-fan nuqtai nazaridan haddan tashqari bo'rttirilgan" [8, B. 231].

Boburiylar haqida yozilgan ilk G'arb asarlaridan biri bo'lgan Uilyam Erskinning "Temur Bobur va Humoyun xonadonining birinchi ikki hukmdori davrida Hindiston tarixi" asarida shunday ma'lumot keltiradi: "temuriy Bobur rajputlar bilan bir necha bor keskin to'qnash kelishdi. ... .. endi ular afg'onlardan yoki ular haligacha to'qnash kelgan Hindistonning har qanday mahalliy aholisidan ko'ra kuchliroq dushman bilan kurashishlari kerakligini aniqladilar. Rajputlar... yuzma-yuz uchrashishga tayyor edilar... o'z sharafi uchun jonini berishga hamisha tayyor edilar" [9, B. 464].

Yana bir tarixchi Eraly Abrahimning yozishicha: "Ra'no Sanga o'ziga qarshi yuborilgan barcha mo'g'ul qo'shinlarini yo'q qildi, bu Bobur qo'shinida katta qo'rquvga sabab bo'ldi, chunki u "majusiylar qo'shinining shafqatsizligi va mardligi" qo'shinlarni "tashvish va qo'rquvga" soldi, deb yozgan edi. Bobur qo'shinidagi afg'onlar keta boshladi va turklar o'zlari yomon ko'rgan yurt himoyasidan shikoyat qila boshladilar, ular Boburdan o'zlari to'plagan boy o'ljalar bilan Kobulga jo'nab ketishni so'radilar" [10, B.256]. Bundan ko'rinib turibdiki, Sikri jangi oldidan Boburning qo'shin holati havas qiladigan darajada bo'lmagan.

Ra'no Sanga Boburga qarshi kuchli harbiy ittifoq tuzdi. Rajastandagi deyarli barcha yetakchi Rajput qirollari, jumladan Xarauti, Jalor, Siroxa, Dungarpur va Dundhardan bo'lganlar unga qo'shilishdi. Marvarlik Rao Ganga shaxsan qo'shilmadi, lekin uning nomidan o'g'li Maldev Rathor boshchiligidagi kontingentni yubordi. Malvadagi Chanderi shahridan Rao Medini Rai ham ittifoqqa

qo‘shildi. Bundan tashqari, afg‘onlar tomonidan o‘zlarining yangi sultoni deb e‘lon qilingan Sikandar Lodining kenja o‘g‘li Mahmud Lodi ham u bilan birga afg‘on otliqlari kontingenti bilan ittifoqqa qo‘shildi. Mevat hukmdori Xonzoda Hasan Xon Mevatiy ham o‘z xalqi bilan ittifoqqa qo‘shildi. Chandra shuningdek, Rano Sanga tomonidan to‘qilgan ittifoq rajputlar va afg‘onlar o‘rtasidagi ittifoq bo‘lib, Boburni quvib chiqarish va Lodi imperiyasini tiklash vazifasini ilgari surganini ta’kidlaydi[7, B. 34]. Tarixchi Sharma Mahmud Lodi boshchiligidagi kichik afg‘on guruhlarini ham Sangaga qo‘shilganini, lekin Sikri jangida ular qochib ketganligini yozadi[11, B. 29-30].

Boburning yozishicha, Ra‘no Sanga qo‘shini 200 ming askardan iborat edi. Biroq, Aleksandr Kinlochning so‘zlariga ko‘ra, bu mubolag‘a, chunki Gujaratdagi yurish paytida Rajput armiyasi 40 000 kishidan oshmagan. Bu raqam bo‘rtirilgan bo‘lsa ham, Chandraning qayd etishicha, Ra‘no Sanga qo‘shini Bobur qo‘shinlaridan ancha ko‘p bo‘lganligi shubhasizdir[7, B. 125]. Rajputlarning ko‘pligi Bobur qo‘shinida qo‘rquv uyg‘otdi. Munajjimlar o‘zining ahmoqona bashoratlari bilan umumiy bezovtalikni qo‘shdi. Bobur o‘z askarlarining ma’naviyatini yuksaltirish uchun hindlarga qarshi jangga diniy tus berdi. Bobur kelajakda sharob iste‘mol qilishdan bosh torta boshladi, qadahlarini sindirdi, hamma ichimlikni yerga to‘kib tashladi va to‘liq voz kechishga qasamyod qildi. Bobur o‘z tarjimai holida shunday yozadi: “Bu haqiqatan ham yaxshi reja edi va do‘stlar va dushmanlarga ijobiy targ‘ibot ta’siriga ega edi”[1, B. 276].

Bobur jangda to‘lg‘ama usulini qo‘llashga urinib ko‘rdi, lekin uning odamlari buni nihoyasiga yetkaza olishmadi, ikki marta rajputlarni quvib chiqarishdi, ammo Rajput otliqlarining shafqatsiz hujumlari tufayli ular o‘z pozitsiyalariga chekinishga majbur bo‘ldilar. Taxminan, shu paytlarda Rayzenlik Silhodi Ra‘no qo‘shinidan ajralib, Bobur tomoniga o‘tdi. Ba’zi tarixchilarning fikricha, bu xiyonat hech qachon sodir bo‘lmagan va bu keyingi davrning “ixtirosi” edi. Bu vaqtda Ra‘no Sanga o‘q tegib, xushini yo‘qotdi, bu Rajput qo‘shinida katta sarosimaga sabab bo‘ldi va janglarda qisqa vaqt sukunat bo‘ldi. Jangni davom ettirish maqsadida Aja ismli jhala boshlig‘i Rana rolini o‘ynagan va Rajput qo‘shinini boshqargan. Rana Sanga esa o‘zining ishonchli odamlari orasida yashiringan. Jala Aja zaif markazini e’tiborsiz qoldirib, dushman qanotlariga hujum qilishni davom ettirar ekan, tajribasiz general ekanligini isbotladi. Rajputlar hujumlarini davom ettirdilar, lekin dushmanning mustahkamlangan markaziga qarshi hech narsa qila olmadi.

Bobur rajputlarning zaif markazini payqab, askarlariga hujumga o‘tishni buyurdi, ularning hujumi rajputlarni ortga surdi. Rajputlar endi yetakchisiz edilar, chunki ularning katta qo‘mondonlarining aksariyati o‘lgan va Rana Sanga jangdan maydonidan olib ketilgan edi. Rajputlar dushmanning chap va o‘ng qanotlariga umidsiz hujum qildilar, avvalgidek, bu erda ularning eng jasurlari qirib tashlandi va jang ularning tuzatib bo‘lmas mag‘lubiyati bilan yakunlandi. Rajputlar va ularning ittifoqchilari mag‘lubiyatga uchradilar.

Xulosa qilib aytganda, Xonva jangi rajputlarning jasorati Boburning yuksak harbiy va tashkilotchilik qobiliyatiga qarshi turish uchun yetarli emasligini ko‘rsatdi. Hind tarixchilarining taxminlarga ko‘ra, agarda Boburning artilleriyasi bo‘lmaganida, Ra‘no Sanga Bobur ustidan tarixiy g‘alaba qozonishi mumkin edi. Lekin, nima bo‘lgan taqdirda ham Pradeep Baruaning tabiri bilan aytganda Bobur to‘plari Hindiston urushidagi eskirgan tendensiyalarga chek qo‘ydi[12, B. 33-34].

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.M.Bobur. Boburnoma. / nashrga tayyorlovchi va lug‘at mualliflari: Xasanov S. Jo‘rayev O. – Toshkent: Fan, 2019.
2. V.S Bhatnagar. Life and Times of Sawai Jai Singh, 1688–1743 : [аНГЛ.]. — Impex India, 1974. — 6 p.

3. An Advanced History of India. By R.C. Majumdar ... H.C. Raychaudhuri ... Kalikinkar Datta. (Second Edition.). : [аНГЛ.]. — Macmillan & Company, 1950. — 419 p.
4. Radheyshyam Chaurasia. History of Medieval India: From 1000 A.D. to 1707 A.D. : [аНГЛ.]. — Atlantic Publishers & Dist, 2002. — 161 p.
5. Giles Tillotson. Mughal India : [аНГЛ.]. — Penguin Books, 1991. — P. 4;
6. Hooja, Rima. A History of Rajasthan. — Rupa and company, 2006. — 453 p.
7. Chandra, Satish. Medieval India: From Sultanat to the Mughals (1206–1526). — Har-Anand Publications, 2006. — 203 p.
8. Gopinath Sharma. Mewar & the Mughal Emperors (1526-1707 A.D.) : — S.L. Agarwala, 1954. — 231 p.
9. A history of India under the two first sovereigns of the house of Taimur, Báber and Humáyun. Indian Culture London: Longman, Brown, Green, and Longmans. 1854. — 464 p.
10. Eraly, Abraham. Emperors of the Peacock Throne: The Saga of the Great Moghuls. — Penguin UK, 2007. — 256 p.
11. Dasharatha Sharma, Lectures on Rajput History and Culture : — Motilal Banarsidass, 1970. — 29–30 p.
12. Barua, Pradeep. The State at War in South Asia. — University of Nebraska Press, 2005. — 33–34 p.